Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320292

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARI VA ISH HAQI DINAMIKASI

SO‘FIYEVA XUSNIYA SOXIBJONOVNA
TDIU Andijon fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi katta o ‘qituvchisi email: xusniyasofiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston aholisi daromadlarining o‘sish tendensiyalari, tarkibiy manbalari va hududiy o‘zgarishlari tahlil qilingan. Maqolada nominal va real daromadlar o‘rtasidagi tafovut, kichik tadbirkorlikning ahamiyati hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tengsizligi statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, ish haqi dinamikasi, nominal va real daromad, kichik tadbirkorlik, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции роста, структурные источники и региональные изменения доходов населения Узбекистана. Освещаются различия между номинальными и реальными доходами, роль малого бизнеса и неравенство в оплате труда на основе статистических данных.

Ключевые слова: доходы населения, динамика заработной платы, номинальный и реальный доход, малое предпринимательство, экономическая стабильность.

Abstract: This article analyzes growth trends, structural sources, and regional changes in the income of the population of Uzbekistan. Based on statistical data, the gap between nominal and real income, the role of small business, and wage inequality are highlighted.

Keywords: population income, wage dynamics, nominal and real income, small business, economic stability.

Kirish

Aholi daromadlari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi. 2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida aholining sotib olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan muhim qadamlar qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 2-iyundagi PF-91-son Farmoniga muvofiq, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar 10 % ga oshirilishi aholi daromadlari dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tadqiqotning maqsadi statistik ko‘rsatkichlar asosida daromadlarning asosiy drayverlarini va hududiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Metodlar

Published: 05.06.2026

Cite this article: So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna (2026). O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari va ish haqi dinamikasi. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320292

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tahlilda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi dastlabki ma’lumotlaridan foydalanildi. Statistik hisob-kitoblarda Jahon banki tavsiya etgan uy xo‘jaliklari kuzatuvi metodologiyasi qo‘llanilgan. Daromadlarning real o‘sishini aniqlash uchun Iste’mol narxlari indeksi (INI) yordamida inflyatsiya omili chegirib tashlandi. Ma’lumotlar manbai sifatida korxonalar hisobotlari, Markaziy bank pul o‘tkazmalari va Soliq qo‘mitasi bazalari xizmat qildi.


Natijalar

Umumiy daromadlar va o‘sish sur’atlari 2025-yilda aholining umumiy daromadlari 1 134,3 trln so‘mni tashkil etdi. Nominal o‘sish118,9 % real o‘sish 109,2 % ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga o‘rtacha daromad 29,9 mln so‘mga yetdi, bu esa 2021-yildagi ko‘rsatkichdan deyarli ikki baravar ko‘pdir.

Daromadlarning tarkibiy manbalari Aholi daromadlarining shakllanishida quyidagi manbalar asosiy rol o‘ynadi:

- Mehnat faoliyati (60,4 %): Bunda mustaqil bandlikdan olingan daromadlar 34,0 % ni, yollanma ishchilar ish haqi esa 26,4 % ni tashkil etdi.
- Transfertlar (29,6 %): Uning tarkibida ijtimoiy to‘lovlar (pensiya, nafaqa) va respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari mavjud.
- Pul o‘tkazmalari: Xorijdan kelgan mablag‘larning nominal o‘sishi 126,8 % ni tashkil etdi va umumiy daromadlarning 21,0 % ini ta’minladi.
- Mol-mulk daromadlari: 37,1 trln so‘mni (ulushi 3,3 %) tashkil etib, eng yuqori o‘sish sur’atini (144,6 %) ko‘rsatdi.

Ish haqi va sohaviy tahlil 2025-yilda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 376,7 ming so‘mga yetdi (o‘sish 18,9 %).



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi, ming so‘mda206.

206 Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi

Tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki eng yuqori ish haqi bank va sug‘urta sohasida bo‘lib, 17,6 mln so‘m, axborot va aloqada sohasida esa 15,3 mln so‘mni tashkil etgan. Eng past ish haqi esa sog‘liqni saqlashda sohasida 3,9 mln so‘m va ta’limda esa 4,4 mln so‘mni tashkil etgan

Keyingi tahlilda hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2025-yilning yanvar-dekabr oylari uchun keltirilgan bo‘lib, shu davrning Respublikaning o‘rtacha bo‘yicha ko‘rsatkichi bilan taqqoslangan.

1-jadval

Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi[207]

Hududlar	Ming so‘m	Respublika ko‘rsatkichiga nisbatan
O‘zbekiston Respublikasi	**6376,7**	**100,00**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5003,1	78,46
Andijon viloyati	5238,6	82,15
Buxoro viloyati	5093,1	79,87
Jizzax viloyati	4786	75,05
Qashqadaryo viloyati	4476,7	70,20
Navoiy viloyati	7871,6	123,44
Namangan viloyati	4751,3	74,51
Samarqand viloyati	4737,6	74,30
Surxondaryo viloyati	4481,8	70,28
Sirdaryo viloyati	5119,1	80,28
Toshkent viloyati	5967,7	93,59
Farg‘ona viloyati	4730,2	74,18
Xorazm viloyati	5052,4	79,23
Toshkent shahri	10753,8	168,64

Hududlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Toshkent shahrida 10 753,8 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga o‘sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko‘rsatkich Namangan viloyatida 4 751,3 ming so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 122,8 %), Sirdaryo viloyatida 5 119,1 ming so‘mni (120,8 %), Jizzax viloyatida 4 786,0 ming so‘mni (120,5 %), Farg‘ona viloyatida 4 730,2 ming so‘mni (119,1 %) va Xorazm viloyatida 5 052,4 ming so‘mni (118,4 %) tashkil etgan.

O‘z o‘rnida, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Qashqadaryo viloyatida 4 476,7 ming so‘mni (118,2 %), Samarqand viloyatida 4 737,6 ming

[207] Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi

so‘mni (117,8 %), Surxondaryo viloyatida 4 481,8 ming so‘mni (117,4 %), Buxoro viloyatida 5 093,1 ming so‘mni (117,2 %), Toshkent viloyatida 5 967,7 ming so‘mni (116,9 %), Navoiy viloyatida 7 871,6 ming so‘mni (116,0 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 003,1 ming so‘mni (115,7 %) hamda Andijon viloyatida 5 238,6 ming so‘mni (113,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o‘sish sur’ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Hududiy notekislik Jon boshiga daromadlar bo‘yicha Toshkent shahri (73,9 mln so‘m) respublikadagi eng boy hudud bo‘lib qolmoqda. Navoiy viloyatida (44,7 mln so‘m) sanoat va yollanma mehnat ulushi (38,3 %) juda yuqori. Eng past ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘iston (20,6 mln so‘m) va Namangan viloyatida (21,3 mln so‘m) qayd etilgan bo‘lsa-da, Farg‘ona viloyati 14,8 % lik real o‘sish bilan yetakchilik qilmoqda.

Kichik tadbirkorlikning ta’siri Kichik tadbirkorlik aholi daromadlarining 58,0 % ini shakllantirib, ijtimoiy barqarorlikning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Jizzax (66,6 %) va Buxoro (64,2 %) viloyatlarida daromadlarning asosiy qismi aynan shu sohaga to‘g‘ri keladi.

So‘nggi 5 yil ichida mustaqil bandlikdan olingan daromadlar ulushi 40,1 % dan 34,0 % gacha qisqardi, bu esa iqtisodiyotning legallashishi va yollanma mehnat sektorining kengayishidan dalolat beradi.

Xulosa

2025-yilgi statistik tahlil O‘zbekistonda aholi daromadlarining barqaror nominal va real o‘sishini ko‘rsatmoqda. Biroq, sohalar va hududlar o‘rtasidagi daromadlar tafovuti hamon saqlanib qolmoqda. Iqtisodiy siyosatni keyingi bosqichlarida ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ish haqini oshirish hamda chekka hududlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu tafovutni kamaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, M. Ijtimoiy iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 348 b.
2. Maxmudov, N., Rahimov, Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 412 b.
3. Alimov, R.X. Iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari dinamikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 276 b.
4. Tojiev, Sh., Abdullaeva, D. Aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 231 b.
5. Yarqulov, Sh. Aholi turmush darajasini baholash metodikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2022. – 198 b.
6. Растоу, А., Румянцева, Е. Социально-экономическое развитие населения. – Москва: Юрайт, 2019. – 289 с.